

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**AMONOV ASQAR NOMOZBOYEVICH**

**STOL TENNISIDA ZARBALAR ANIQLIGI VA UNI ERTA YOSHLIKDAN**  
**AYLANMA HARAKATLAR TA’SIRIDA BARQARORLASHTIRISH**  
**AFZALLIGI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy**  
**tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Amonov Asqar Nomozboyevich**

Stol tennisida zarbalar aniqligi va uni erta yoshlikdan aylanma harakatlar ta’sirida barqarorlashtirish afzalligi ..... 3

**Амонов Аскар Номозбоевич**

Точность ударов в настольном теннисе, а также преимущество их стабилизации под воздействием вращательных движений с раннего возраста ..... 31

**Amonov Askar Nomozboevich**

The accuracy of strokes in table tennis, as well as the advantage of their stabilization under the influence of rotational movements from an early age ..... 61

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**AMONOV ASQAR NOMOZBOYEVICH**

**STOL TENNISIDA ZARBALAR ANIQLIGI VA UNI ERTA YOSHLIKDAN**  
**AYLANMA HARAKATLAR TA’SIRIDA BARQARORLASHTIRISH**  
**AFZALLIGI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy**  
**tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7608 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.jtsu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Raximov Vladimir Shavkatovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Akramov Jasur Anvarovich**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 - uy. Tel.: (0-370)717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. (O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E-bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatilgan.  
(2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**R.M.Matkarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d (DSc), professor

**M.A.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d (PhD), professor

**A.N.Shopulatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo bo'yicha o'yin maydoni eng kichik bo'lgan (2,7x1,52 m<sup>2</sup>) stol tennisi 1988-yilda Olimpiya dasturiga kiritilgan bo'lib, ayni kunda u bilan yer yuzida 850 mln dan ortiq ixlosmandlar shug'ullanadi. O'tgan davr ichida "kichik" tennisning "katta" muammolari – mashg'ulot va musobaqalarni o'tkazish, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarni rivojlantirish, texnik-taktik usullarga o'rgatish metodlari va vositalari, ko'p yillik tayyorgarlik sikllarini rejalashtirish, iste'dodli sportchilar tayyorlash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan bir qatorda stol tennisida o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab ijro etiladigan harakatlar, ayniqsa burilma-aylanma elementlar ta'sirida zarbalar aniqligini tushib ketishi va uni barqarorlashtirish imkoniyatlarini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahon kontinentlarida stol tennisini yanada rivojlantirish bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan mutaxassis-olimlar tomonidan yakkama-yakka hamda juftlik o'yinlariga xos hujum va himoya taktikasiga o'rgatish, mazkur jarayonda innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar va trenajyorlardan foydalanish tartib-qoidalari ilmiy asoslangan. Musobaqalar davomida maxsus ish qobiliyati va texnik-taktik mahoratni saqlab qolish, buning uchun aerob-anaerob chidamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Biroq, shiddatli mashg'ulot va musobaqa o'yinlarida ko'p martalab takrorlanuvchi sapchib hatlash-sakrash, burilish-aylanish kabi harakatlar ta'sirida muvozanat saqlash koordinatsiyasining izdan chiqishi, natijada zarbalar aniqligining "yo'qolishi" va uni saqlab qolish muammolarini maxsus tadqiqotlar asosida rivojlantirish masalasini taqazo etmoqda.

Respublikamizda rasmiy statistika bo'yicha stol tennisi bilan 25.300 nafar o'g'il va qiz bolalar muntazam shug'ullanayotgani qayd etilgan bo'lsada, yurtimiz bo'ylab deyarli barcha ta'lim muassasalari, tashkilot, korxonalar, istirohat bog'lari, dam olish maskanlari, hatto mahalla markazlarida ham ertayu-kech ushbu sport turi bilan shug'ullanayotgan o'quvchi-yoshlarni ko'rish uni yanada keng ommalashganidan dalolat bermoqda. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni sog'lomlashtirish vositasi sifatida yurtimiz aholisi, ayniqsa yosh avlodning kundalik ehtiyojiga aylantirishga qaratilgan muammolar va ularni bosqichma-bosqich amaliy ijrosini topib kelmoqda<sup>1</sup>. Jumladan, bugungi kunda deyarli barcha sport turlari bilan muntazam shug'ullanish uchun zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlangan minglab sport inshootlari xizmat ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimiz sportchilari Olimpiada va Osiyo o'yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlarida faxrli pog'onalardan joy olib, yurtimiz shuxratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelmoqda. Ammo, stol tennisida harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini vestibulokinetik mashqlar yordamida barqarorlashtirish imkoniyatini erta yoshlikdan boshlab shakllantirib borish hal qiluvchi choralaridan biridir. Mazkur dissertatsiya ishi bo'yicha tanlangan mavzu o'ta dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik ekanligidan dalolat bermoqda.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbir etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda sport turlari misolida turli yosh va sport malakasiga mansub sportchilarni texnik-taktik usullarga o‘rgatish, ularni takomillashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, psixofunksional imkoniyatlarni shakllantirish masalalari yurtimiz olimlari tomonidan o‘tkazilgan keng qamrovli tadqiqotlar F.A. Kerimov, R.D. Xalmuxamedov, S.S. Tojiboyev, I.A. Koshbaxtiyev, R.I. Nurimov, D.D. Safarova, Z.G. Gapparov<sup>2</sup> kabi soha mutaxassislari turli takliflarni ilgari surishgan.

Mustaqil Davrlarlar Hamdo‘stligi yetakchi olimlari tomonidan sport o‘yinlari ichida harakat faoliyati eng kichik “maydonda” kechadigan stol tennisi, ushbu sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘yin texnikasi va taktikasiga o‘rgatish, muvofiq jismoniy sifatlarni tarbiyalash, ko‘p yillik sport trenirovkasining turli bosqichlari davomida malakali tennischilarni tayyorlash muammolarini ilmiy-metodik dasturlarning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish bo‘yicha R.Gufranova, V.A. Bryuxov, J.A. Akramov, V.P. Bezverxov, S.K. Abidov<sup>3</sup> kabi olimlar qisman o‘z ilmiy ishlarida yoritib o‘tishgan.

Xorijiy mutaxassis-olimlar tomonidan serqirrali va ilmiy asoslangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ushbu sport turining dolzarb muommolarini ochib beruvchi ilmiy maqolalar, dasturlar, dissertatsiya va monografiyalar yaratilgan G.V. Barchukova, V.V. Amelin, O.V. Matisin, Ye.V. Yegoricheva, S.K. Ryabinina, V.V. Bannikov, Xen Chyuantao, V.V. Kamanov, S.A. Doroshenko, O.A. Ibragimova, V.Yu. Jdanov<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup>Kerimov F.A. “Спорт кураши назарияси ва усулияти”. -Тошкент: ЎзДЖТИ. Нашриёт-матбаа бўлими, 2005.- 92 б.; Халмухамедов Р.Д. “Бокс”. Ўқув қўлланма. Т., “Lider Press” нашриёти, 2008 й.- 308 б.; Нуримов Р.И. “Футбол назарияси ва услубияти”. “ИТА-PRESS” нашриёти, 2015 й.- 364 б.; Сафарова Д.Д. Спортивная морфология -Ташкент, Изд-во “Ilmiy texnika axborot press”, 2021.- 248 б.; Гаппаров З.Г. “Спорт психологияси”/ Дарслик.-Тошкент: 2011.- 345 б.

<sup>3</sup> Гуфранова Р., Салимов У. Стол теннис. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент – 2017.-108 б.; Гурфанова Р., Брюхов В. Настольный теннис. Программа для ДЮСШОР, Ташкент, Илмий техника. Ахбороти-пресс нашриёти, 2017.-152 с.; Акрамов Ж.А., Безверхов В.П. Настольный теннис. Программа для спортивных школ, специализированных спортивных школ, колледжей олимпийского и паралимпийского резерва. Тошкент – 2023.- 136 с.;

<sup>4</sup> Барчукова Г.В. Настольный теннис для всех и каждого. Советский спорт, 2022.- 208 с.; Амелин А.Н. Настольный теннис (Азбука спорта) / 3-е изд., испр. и доп. – М., 1999.- 192 с.; Матыцин, О.В. Многолетняя

Shu bilan bir qatorda stol tenisi doirasida chop etilgan manbalarni o'rganib chiqish natijasida aniqlandiki, mazkur sport turida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarba berish aniqligi, ayniqsa shu qobiliyatlarni erta yoshlikdan boshlab nafaqat shakllantirib borish, balki ularni uzoq muddatli va shiddatli mashg'ulot hamda musobaqa yuklamalari ta'sirida barqarorlashtirish masalalari bo'yicha zamonaviy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2020-2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasiga muvofiq "O'zbekistonda gandbol, tennis, badminton, regbi sport turlari ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** stol tenisida o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini erta yoshlikdan boshlab barqarorlashtirish bo'yicha taklif va tavsiylarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turli tayyorgarlik bosqichlarida stol tenisi bilan shug'ullanuvchi sportchilar bilan o'tkazilayotgan an'anaviy mashg'ulotlarda zarbalar aniqligini takomillashtirish va harakat qobiliyatlarini erta yoshlikdan boshlab shakllantirish asoslari;

stol tenisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalar misolida harakatlanish tezkorligining qiymatini baholash testlarini modifikatsiyalashtirishning yangi avlodini ishlab chiqish;

stol tenisida keskin o'zgaruvchan vaziyatlarda barqarorlikni saqlash turish imkoniyatini yaratishga ixtisoslashtirilgan vestibulokinetik mashqlar blokini ishlab chiqish;

stol tenisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini barqarorlashtirish metodikasini samarodirligini oshirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida stol tenisi bilan shug'ullanuvchi sport maktabi tarbiyalanuvchilarining o'quv mashg'ulot jarayoni tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti.** 7-8 yoshli tennischilarda keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini o'rganishga qaratilgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusi doirasida chop etilgan ilmiy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnoma, pedagogik testlar, pulsoksimetriya, nafas olish chastotasi (NOCh)ni aniqlash, statoxronometriya,

---

подготовка юных спортсменов в настольном теннисе: учеб. пособие. – М.: Теория и практика физ. культуры, 2001.- 204 с.; Рябина С. К. Настольный теннис в системе физического воспитания студентов технического вуза: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 – Красноярск, 2004.- 135 с.; Хэн Чюантао. Обучение технике игры в настольный теннис детей 6-8 лет с использованием тренировочных заданий точно-скоростной направленности: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 – Минск, 2019.- 130 с.; Команов В.В. Тренерский процесс в настольном теннисе/ Уч.-метод. пособие. – М.: Советский спорт, 2014.- 348 с.; Жданов В. Ю. Настольный теннис. Обучение за 5 шагов: [учеб. пособие]. – М.: Sport, 2015.- 128 с.

vestibuloxronometriya, pedagogik tajriba, matematik-statistik uslublardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

turli tayyorgarlik bosqichlarida stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan, harakatlanishda zarbalar aniqligini oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan mashqlar tasnifiy modeli yordamida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichlarida hujum zarbalarini o'rgatish uslublari takomillashtirilgan;

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda stol atrofida harakatlanish tezligining qiymatini obyektiv baholash maqsadida vestibulokinetik elementlarni modifikatsiyalashtirishning yangi avlod testlaridan foydalanish orqali o'yin jarayonlarida turli zonalarda qarshi hujum zarbalarini amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

musobaqa faoliyatida keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab barqaror harakatlanishni ta'minlashga zamin yaratuvchi burilma-aylanma harakatlardan iborat vestibulokinetik mashqlar bloklarini ishlab chiqish hisoboga texnik harakatlarga yaqinlashtiruvchi maxsus mashqlarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi 7-8 yoshli bolalarda tezkor kuch qobiliyatlarini oshirishda qisqa masofalarga taqsimlangan mashq yuklamalarini optimal rejalashtirish hamda tayyorgarlik davrida qo'llash hisobiga yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

pedagogik kuzatuv natijalari va ekspress-so'rovnoma savollariga konfederal javoblar olish asosida turli tayyorgarlik bosqichlarida stol tennisi bilan shug'ullanuvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini rivojlantirish tajribasini o'rganish texnologiyasi joriy etilgan;

stol tennisida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini erta yoshlikdan ishlab chiqilgan tasnifiy andozalarda keltirilgan maxsus mashqlar yordamida shakllantirish zarurligi asoslangan;

stol tennisida harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligining barqarorlik qiymatini baholashga mo'ljallangan an'anaviy testlar ixtisoslashtirilgan tartibda modifikatsiyalashtirilgan va ularning vestibulokinetik elementlardan iborat yangi avlodi yaratilgan;

stol tennisida erta yoshlikdan boshlab (7-8) harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligini vestibulokinetik mashqlar yordamida barqarorlashtiruvchi mashqlar bloklari ishlab chiqilgan va ularning samaradorligi eksperimental tadqiqotlar asosida isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotning maqsadi, vazifalari va predmetiga mos metod holda testlardan foydalanganligi, tadqiqotlarni ichki va tashqi omillar ta'siridan holi bir xil standart shart-sharoitlarda tashkil etilganligi, tadqiqotni o'tkazish va testlarni qo'llash tartib-qoidalariga rioya qilinganligi, test-retestlar natijalari metrologik sinovlardan o'tkazilganligi, tadqiqot ishtirokchilari va uni takrorlanish sonini (n) statistik mezon talablariga mosligi, natijalarni statistik usullar yordamida qiyosiy tahlil qilinganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, stol tennisida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarbalar berish aniqligi hatto qisqa muddatli vestibulokinetik yuklamalar (burilma-aylanma harakatlardan iborat mokisimon yugurish) ta'sirida tushib ketishi muvofiq tadqiqot natijalaridan kuzatilgan. Shuning uchun koordinatsion jihatdan o'ta murakkab bo'lgan mazkur harakat qobiliyatlarini qayd etilgan yuklamalar ta'siriga barqarorlashtirish imkoniyati ularni erta yoshlikdan boshlab muntazam shakllantirib borishga bog'liq ekanligi tadqiqot natijalariga binoan ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati stol tennisida ijro etiladigan harakatlanishlar texnikasiga o'rgatish, ularning tezkorligi va zarbalar aniqligini erta yoshlikdan ishlab chiqilgan hamda muvofiq tasnifiy andozalarga ierarxik tartibda joylashtirilgan vestibulokinetik mashqlar yordamida samarali shakllantirish va barqarorlashtirish mumkinligi bilan belgilanib, mazkur harakat qobiliyatlarining o'sish sur'atini baholashga mo'ljallangan bir qator test mashqlarini modifikatsiyalashtirilganligi va ularning yangi avlodi yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Stol tennisida zarbalar aniqligi va uni erta yoshlikdan aylanma harakatlar ta'sirida barqarorlashtirish afzalligi mavzusi doirasida olib borilgan pedagogik tajriba asosida:

turli tayyorgarlik bosqichlarida stol tennisini bilan shug'ullanuvchi sportchilarda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan, harakatlanishda zarbalar aniqligini oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan mashqlar tasnifiy modeli Toshkent shahar oliy sport mahorati maktabi hamda Sirdaryo viloyati Guliston tuman sport maktabida stol tennisini bilan shug'ullanuvchilarining o'quv mashg'ulot jarayonlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-sentabrdagi 03-16/8929-son dalolatnomasi). Natijada, nisbiy hujum zarbalar aniqligi 58,19% ga oshgan;

stol tennisini bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda stol atrofida harakatlanish tezligining qiymatini obyektiv baholash maqsadida vestibulokinetik elementlarni modifikatsiyalashtirishning yangi avlod testlari Sirdaryo viloyati Guliston tuman sport maktabi va O'zbekiston stol tennisini federatsiyasi va Qoraqalpog'iston bo'limi sportchilarining mashg'ulot jarayonlariga tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-sentabrdagi 03-16/8929-son dalolatnomasi). Natijada, maxsus jismoniy sifatlarning nisbiy o'sishi 13,27% ni, YuQCh va NOChning fiziologik jihatdan ijobiy tomonga nisbiy o'zgarish sur'ati, 20,47% ga oshgan;

musobaqa faoliyatida keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab barqaror harakatlanishni ta'minlashga zamin yaratuvchi burilma-aylanma harakatlardan iborat vestibulokinetik mashqlar bloklari O'zbekiston stol tennisini federatsiyasi va hududiy bo'linmalari hamda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti sportchilarining mashg'ulot jarayonlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-sentabrdagi 03-16/8929-son dalolatnomasi). Natijada, kardiorespirator ko'rsatkichlarning nisbiy o'sishi tinch holatda 18,40%; 28,25%; 71,26% ga, vestibulokinetik yuklama ta'sirida 18,98%; 44,20%; 66,17%; gacha o'sgan.

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi 7-8 yoshli bolalarda tezkor kuch

qobiliyatlarini oshirishda qisqa masofalarga taqsimlangan mashq yuklamalarini optimal rejalashtirish hamda tayyorgarlik davrida qo'llash kabi takliflar O'zbekiston stol tennisi federatsiyasi va hududiy bo'linmalarining mashg'ulot jarayonlariga tadbiriq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-sentabrdagi 03-16/8929-son dalolatnomasi). Natijada, zarbalar hajmi va ularning aniqligini nisbiy o'sish sur'ati ko'rsatkichlari 58,21% o'sgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyani tadqiqot mavzusi doirasida jami 4 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi to'rtta bob, kirish 131 betli matn, 14 ta jadval, 9 ta rasm, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sport o'yinlarida harakat aniqligining o'rni va uni barqarorlashtirish masalalari**" deb nomlangan birinchi bobida tanlangan mavzu doirasida chop etilgan bibliografik manbalar, ilmiy metodik ma'lumotlar, tadqiqot natijalari va bu borada mutaxassis-olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, sport o'yinlarida, shu jumladan stol tennisida ham favqulotli vaziyatlar va keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab ijro etiladigan harakatlar va zarbalar aniqligining ilmiy-nazariy mohiyati, biomexanik xususiyatlari, texnikasi, taktikasi, neyrofiziologik va psixopedagogik mexanizmlarga asoslanishi, ularni ko'p yillik sport trenirovkasining turli bosqichlari bo'ylab shakllanish dinamikasi keng qamrovli tadqiqotlarga muvofiq ochib berilgani aniqlandi. (V.I.Lyax, 2006; L.D. Nazarenko, 2006; V.B. Issurin 2019).

Vaziyatli sport turlarida, ayniqsa stol tennisida amalga oshiriladigan harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligining o'zaro bog'liqligi, ularning tejamli energiya bilan ijro etilishi mukammallashgan texnik-taktik va harakat biomexanikasiga asoslanishi ushbu harakat qobiliyatlari, jismoniy sifatlar va funksional imkoniyatlarni proporsional nisbatda rivojlantirish natijasida samarali shakllanishi, lekin mazkur jarayonlarni erta yoshlikdan boshlab amalga oshirish zarurligi isbotlangan ekan (L.K. Serova, 2016; V.V. Komanov, 2014; B.P. Sokur, 2022; Xen Chyuantao, 2019).

Stol tennisida o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab harakatlanish tezkorligi va zarbalar aniqligi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni yuksak natijadorlik bilan ijro etish nafaqat texnik-taktik mahoratga asoslanishi, balki maxsus jismoniy sifatlar bilan bir qatorda ixtisoslashtirilgan koordinatsion qobiliyatlar (harakat reaksiyasi – bir harakatdan boshqa harakatga tezkor o'tish, vaziyatni bashorat qilish, o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish, vaqt-oraliq va mushaklarning kuchlanish dinamikasining farqlash reaksiyasi, muvozanat saqlash) bilan belgilanishi nazariy jihatdan ham, ilmiy tomondan ham ochib berilgan. Afsuski, bu borada stol tennisining ko'p qirrali muammolari va yuqorida qayd etilgan dolzarb masalalari yurtimiz olimlari tomonidan o'ta tor doirada o'rganilgan ekan (D.Abdullayeva, R.S. Salamov, 2009; Sh.A. Pulatov, 2023; J.A. Akramov, V.P. Bezverxov, 2023).

Ko'rib chiqilgan va qiyosiy tahlil qilingan bibliografik manbalar, deyarli barcha mutaxassis-olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar va chop etilgan ilmiy resurslardan ma'lum bo'ldiki, stol tennisida harakatlanish tezkorligi, uning ta'sirida ijro etiladigan zarbalar aniqligi va uni erta yoshlikdan boshlab barqarorlashtirish imkoniyatlari deyarli o'rganilmaganligi tasdiqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uslublari va uni tashkil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uslublari ochib berilgan. Tadqiqotni o'tkazishda quyidagi metodlardan foydalanilgan: adabiyotlar tahlili, ekspres-so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, statoxronometriya – statik muvozanatni saqlash, vestibuloxronometriya – dinamik muvozanatni saqlash, “Archasimon” yo'nalishda mokisimon yugurish – 54 m, tennis stoli bo'ylab o'ng va chap yonlama yugurish, turli tomonlar bo'ylab uzunlikka hatlash-sakrash, 30 soniya davomida devorga ko'ndalang zich joylashtirilgan tennis stoli yuzasidan 50 sm balandda chizilgan aylana nishonga (diametri 25 sm) max marta zarba berish, pulsoksimetriya – yurakni qisqarish chastotasi (YuQCh)ni aniqlash, nafas olish chastotasini aniqlash (NOCh), pedagogik tajriba, matematik statistika usullari.

Tadqiqotlar to'rtta bosqichda tashkil qilingan.

Birinchi bosqich (2021-yil yanvar-avgust) dissertatsiya mavzusini tanlash, uning dolzarbligini aniqlash uchun muvofiq doirada chop etilgan adabiyotlarni to'plash va tahlil qilish, uni tasdiqlash, so'rovnoma, stol tennisini bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalar mashg'ulotlarini kuzatish va so'rovnomalar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish ishlari amalga oshirilgan.

Ikkinchi bosqich (2021-yil sentabr-2022-yil iyun oylarida) joriy tadqiqotlar o'tkazish, natijalarni umumlashtirish, statistik ishlov berish va guruhlashtirilgan tartibda qiyosiy tahlil qilish, jadvallar, diagrammalar tayyorlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ishlari o'tkazildi. III bob tayyorlandi.

Uchinchi bosqich tadqiqot maqsadi va vazifalariga asosan eksperimental mashqlar bloklari va majmualari ishlab chiqildi. Pedagogik tajriba dasturi tuzildi va 2022-yilning sentabr oyidan 2023-yilning iyun oyigacha mazkur tajriba o'tkazildi. Tajriba davomida o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilindi va IV bob materiallari tayyorlandi. Maqolalar chop etildi.

To'rtinchi bosqich (2023-yil dekabr - 2024-yil avgust) IV bobning to'liq shakli yozib tugatildi. Maqolalar chop etildi, amaliy tavsiyalar amalga joriy etilib, dalolatnomalar va boshqa hujjatlar himoyaga tayyorlandi.

Dissertatsiyaning **“Stol tennisini bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalar mashg'ulotlarida zarbalar aniqligini vestibulokinetik va anaerob yuklamalar**

**ta'siriga barqarorlashtirish tajribasini o'rganish natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida 7-8 yoshli bolalar mashg'ulotlarida vestibulokinetik va anaerob yuklamalar ta'siriga barqarorlashtirish tajribasini o'rganish natijalari qiyosiy tahlil qilingan (1-jadvalga qarang). Masalan, o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ldiki, stol tennisi bilan shug'ullanuvchi yosh bolalarda mashg'ulotlar olib boruvchi o'qituvchi-trenerlar ushbu sport turida zarbalar texnikasi, koordinatsiyasi va aniqligini ta'minlashda, ayniqsa ularni foydali natija bilan ijro etishda vestibulyar analizatori tomonidan boshqariladigan muvozanat saqlash turg'unligining hal qiluvchi ahamiyati haqida yetarli bilimga ega emas ekanlar (56-76%). Mazkur o'qituvchi-trenerlarning aksariyat qismi (72-80%) o'z mashg'ulotlarida muvozanat saqlash turg'unligini jadal rivojlantiruvchi keskin burilma-aylanma harakatlardan iborat vestibulokinetik mashqlardan maqsadli foydalanmasliklari, zarbalar aniqligini shunday mashqlar ta'sirida barqarorlashtirmasliklari ma'lum bo'ldi.

### 1-jadval

#### Stol tennisi trenerlari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (n=25)

T/r	Savollar	Javoblar	
		ha	yo'q
		soni /foizda	soni /foizda
1.	Stol tennisida jangovar holatni saqlash va harakatlanish aniqligi muvozanat saqlash turg'unligi bilan bog'liqmi?	8/32	17/68
2.	Zarba berish aniqligi muvozanat saqlash qobiliyatiga asoslanadimi?	9/36	16/64
3.	Harakat aniqligi gipoksiyaga bog'liqmi?	6/24	19/76
4.	Harakat aniqligi anaerob chidamkorlikka bog'liq bo'lishi mumkinmi?	11/44	14/56
5.	Harakat aniqligi vestibulyar analizatori faoliyatiga asoslanadimi?	8/32	17/68
6.	Zarba aniqligi harakat analizatoriga bog'liq bo'ladimi?	13/52	12/48
7.	Zarba aniqligi taxikardiyaga bog'liq bo'ladimi?	10/40	15/60
8.	Shiddatli musobaqa o'yinlarida O <sub>2</sub> qarzdorligi ortishi natijasida harakat aniqligi susayadimi?	11/44	14/56
9.	Zarbalar texnikasi, taktikasi va aniqligi vestibulokinetik mashqlar ta'sirida shakllantiriladimi?	5/20	20/80
10.	Siz mashg'ulotlaringizda keskin burilish-aylanish elementlaridan iborat mokisimon yugurish mashqlari yordamida zarbalar aniqligini barqarorlashtirasizmi?	7/28	18/72

Bunday muammolarning mavjudligi pedagogik kuzatuv natijalari bilan ham tasdiqlangan.

Joriy tadqiqotlar natijalaridan aniqlandiki, stol tennisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli tennischilarda zarbalar hajmi va aniqligini o'ziga xos ulushlar asosida ta'minlovchi bir qator maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari proporsional nisbatda rivoj topmagan ekan. Masalan, tennis stoli atrofida 2 marta o'ng yonlama, 2 marta chap yonlama yugurish tezligi o'quv-mashg'ulot yili boshida (dastlabki real ko'rsatkichlar) muvofiq ravishda  $16,6 \pm 2,07$  va  $14,3 \pm 1,23$  soniyani, umumiy tezlik  $30,9 \pm 3,35$  soniyani tashkil etgan (2-jadvalga qarang).

Ko'rinib turibdiki, umumiy natija chap yonlama yugurish tezligi foydasiga asimmetrik farq bilan qayd etilgan.

**Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlanganlik darajasi va uni bir o‘quv-mashg‘ulot yili davomida o‘sish sur‘ati (n=136)**

T/r	Testlar	O‘MY boshida	O‘MY yakunida	KAO‘S
1	Tennis stoli atrofida yugurish (soniya): - o‘ng yonlama	16,6 ± 2,07	15,3 ± 1,89	1,3
	- chap yonlama	14,3 ± 1,28	13,5 ± 1,12	0,8
	Umumiy tezlik	30,9 ± 3,35	28,8 ± 3,01	2,1
2	Joydan turli yo‘nalishlar bo‘ylab hatlash-sakrash (soniya): - oldiga	107,2 ± 3,27	109,5 ± 3,69	2,3
	- chap oyoqda depsinib, o‘ng diagonal bo‘ylab	105,6 ± 2,75	108,9 ± 2,86	3,3
	- o‘ng oyoqda depsinib, chap diagonal bo‘ylab	100,3 ± 1,73	103,5 ± 2,47	3,2
	- chap oyoqda depsinib, o‘ng yon tomonga	103,2 ± 1,42	105,7 ± 1,78	2,5
	- o‘ng oyoqda depsinib, chap yon tomonga	97,3 ± 1,29	99,6 ± 1,47	2,3
3	“Archasimon” shaklda mokisimon yugurish – 54 m (soniya).	24,5 ± 2,03	23,2 ± 1,88	1,3

Joydan oldinga, chap oyoq bilan depsinib, o‘ng diagonal bo‘ylab 105,6±2,75 soniya, o‘ng oyoq bilan depsinib, chap diagonal bo‘ylab 100,3±1,73 soniya, aynan shunday o‘ng va chap yon tomonlarga hatlash-sakrash ko‘rsatkichlari ham chap tomon foydasiga asimmetrik farq bilan ijro etilgan. Uzunligi 10 m, eni 3 m li to‘rtburchakning ikki yon chiziqlari bo‘ylab har 3 m ga joylashtirilgan to‘ldirma to‘plar tomon mokisimon yugurish (54 m) tezligi esa nisbatan sust namoyish etilganligi ushbu tennischilarda tezkorlik-kuch qobiliyati yetarli sayqal topmaganidan darak beradi. Afsuslanarli joyi shundaki, o‘quv-mashg‘ulot yili boshida qayd etilgan mazkur ko‘rsatkichlar uning yakuniga kelib ham jadal o‘smaganligi ma‘lum bo‘ldi.

Stol tennisi bo‘yicha o‘tkaziladigan uzoq muddatli va shiddatli mashg‘ulotlar, ayniqsa musobaqa o‘yinlari davomida ish qobiliyati, shu jumladan sport mahoratini saqlab qolish nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki uni “harakatga” keltiruvchi funksional imkoniyatlarga ham bog‘liqdir. Bu borada o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ldiki, 7-8 yoshli tennischilarda tinch holatda o‘rganilgan qator yetakchi fiziologik reaksiyalar funksional jihatdan “tejamli ishlash” rejimiga moslashmaganini ko‘rsatdi. Masalan, YuQCh o‘quv-mashg‘ulot yili boshida 78,8±4,07 zarba/daq ni tashkil etgan bo‘lsa, uning yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 76,6±3,57 zarba/daq bilan qayd etilgan yoki YuQChning bir o‘quv-mashg‘ulot yili davomida ijobiy tomonga o‘zgarish farqi 2,2 zarba/daq ga teng bo‘lgan.

NOCh muvofiq ravishda 18,7±2,15 va 16,2±1,85 marta/daq ni, Shtange sinovi yordamida aniqlangan chuqur nafas olib, nafas saqlash 29,5±3,74-32,8±3,89 soniya, Genchi sinovi – to‘liq nafas chiqarib, nafas saqlash 17,9±1,78-21,7±2,11 soniyani tashkil etgani, shubha yo‘qki, shiddatli yuklamalar qo‘llanganda muvofiq fiziologik funksiyalarni “zo‘riqish” holatiga olib kelib, harakatlar hajmi va aniqligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Harakat aniqligi va uning barqarorligini ta'minlashga zamin yaratuvchi vestibulyar analizatori tomonidan boshqariladigan muvozanat saqlash turg'unligi ham tadqiqotga jalb qilingan 7-8 yoshli tennischilarda nihoyatda sust sayqal topgani ma'lum bo'ldi. Jumladan, oyoqlar uchida tik turib ko'z yumilgan holatda muvozanat saqlash turg'unligi dastlab  $8,5 \pm 3,12$  soniyaga teng bo'lgan, lekin 10 oylik o'quv-mashg'ulotlar davomida  $2,3$  soniyagacha o'sgan holos (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Stol tennisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda turli statik holat va vestibulokinetik rejimlarda muvozanat saqlash turg'unligini bir o'quv-mashg'ulot yili davomida o'sish sur'ati (n=108)

T/r	Testlar	O'MY Boshida $x \pm s$	O'MY Yakunida $x \pm s$	KAO'S
1	Oyoqlar uchida tik turib, muvozanat saqlash (soniya)	$8,5 \pm 2,12$	$10,8 \pm 3,57$	2,3
2	1-chi test qo'llarni yuqoriga ko'tarib ijro etiladi.	$6,3 \pm 1,84$	$7,8 \pm 2,05$	1,5
3	O'ng oyoqqa tayanib, "Qaldirg'och" holatida muvozanat saqlash (soniya)	$7,9 \pm 2,08$	$11,3 \pm 2,76$	3,4
4	3-chi test chap oyoqqa tayanib ijro etiladi.	$5,7 \pm 1,25$	$7,4 \pm 2,02$	1,7
5	Tik holatda boshni chap tomonga aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash (soniya)	$11,3 \pm 2,35$	$14,9 \pm 2,87$	3,6
6	1-chi test boshni o'ng tomonga aylantirish ta'sirida ijro etiladi	$7,5 \pm 1,79$	$9,8 \pm 1,88$	2,3
7	90° oldinga egilib, tanani chap tomonga 10 marta aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash (soniya)	$13,2 \pm 3,07$	$16,5 \pm 3,07$	3,3
8	3-chi test tanani o'ng tomonga aylantirish ta'sirida ijro etiladi	$8,4 \pm 1,83$	$10,9 \pm 2,05$	2,5

**Izoh:** - O'MY – o'quv-mashg'ulot yili;

- KAO'S – ko'rsatkichlarning absolyut o'sish sur'ati;

- 5-6-chi testlar ko'z yumilgan holatda, qo'llar tanaga, oyoqlar bir-biriga jipslashtirilgan holatda ijro etiladi;

- 7-8-chi testlar diametri 60 sm aylana chiziq ichida bajariladi, chiziq bosilsa yoki chiziqdan chiqib ketilsa, test to'xtatiladi va vaqt hisobga olinadi;

- barcha testlar ko'z yumilgan holatda ijro etiladi.

Mazkur test qo'llarni yuqoriga ko'tarib ijro etilganda muvozanat saqlash  $6,3 \pm 1,84$  soniyadan  $7,8 \pm 2,05$  soniyagacha o'sgan. O'ng va chap oyoqqa tayanib, "Qaldirg'och" holatida muvozanat saqlash muvofiq ravishda  $7,9 \pm 2,06$  soniyadan  $11,3 \pm 2,76$  soniyagacha va  $5,7 \pm 1,25$  soniyadan  $7,4 \pm 2,02$  soniyagacha uzaygan. Ko'rinib turibdiki, birinchidan, qayd etilgan barcha ko'rsatkichlar nihoyatda past bo'lgan va bir o'quv-mashg'ulot yili davomida o'ta sust sur'atlar bilan o'sgan. Ikkinchidan, o'ng va chap oyoqqa tayanib, "Qaldirg'och" holatida muvozanat saqlash turg'unligi o'rtasida sezilarli asimmetrik farq kuzatilgan. Bunday holat harakat aniqligi va uning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi deb ehtimol qilish mumkin.

Turli holat va vestibulokinetik rejimlarda muvozanat saqlash stol tennisida zarbalar aniqligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lsada, biroq tadqiqotda ishtirok etgan 7-8 yoshli tennischilarda bu qobiliyat ham o'ta sust rivojlangan ekan. Masalan, tik holatda boshni chap tomonga aylantirish (o'naqaylar uchun qulay tomon) ta'sirida muvozanat saqlash dastlab  $11,3 \pm 2,35$  soniya bilan qayd etilgan bo'lsa, o'quv-mashg'ulot yili yakuniga kelib mazkur ko'rsatkich  $3,6$  soniya ga uzaygan holos. Boshni o'ng tomonga aylantirish (o'naqaylar uchun noqulay tomon) ta'sirida esa muvozanat saqlash o'quv-mashg'ulot yili boshida  $7,5 \pm 1,79$  soniyaga teng bo'lgan, uning yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich  $9,8 \pm 1,88$  soniyani tashkl etgan yoki  $2,3$  soniya gacha uzaygan. Gavdani  $90^\circ$  oldinga egilgan holatida tanani chap va o'ng tomonlarga aylantirish ta'sirida ham muvozanat saqlash turg'unligi o'ta sust ko'rsatkichlar bilan namoyish etilgan bo'lib uning o'sish sur'ati ham jadal bo'lmagan. Afsuslanarli joyi shundaki, ushbu tennischilarda bosh va tanani qarama-qarshi tomonlarga aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash turg'unligi o'rtasida yaqqol ko'zga tashlanadigan asimmetrik farq qayd etilgan.

Stol tennisi bilan boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida 1-1,5 yil davomida shug'ullanib kelayotgan 7-8 yoshli tennischilarda 30 soniyali zarbalar hajmi tinch holatda nisbatan yetarli baholanadigan bo'lsa ham, lekin ularning aniqligi o'quv-mashg'ulot yili boshida ham, uning yakunida ham deyarli 4-3 barobarga kamayib ketganligi kuzatildi (4-jadvalga qarang).

#### 4-jadval


### Stol tennisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda turli funksional rejimlarda 30 soniya ichida ijro etilgan zarbalar aniqligi va uni o'quv-mashg'ulot yili davomida o'sish sur'ti (n=69)

T/r	Testni o'tkazish rejimlari	O'MY boshida		O'MY yakunida		KAO'S	
		Zarbalar soni	Zarbalar aniqligi	Zarbalar soni	Zarbalar aniqligi	X	A
1	Tinch holatda (ortiqcha yuklamasiz)	$28,3 \pm 3,04$	$7,6 \pm 1,2$	$29,8 \pm 2,79$	$8,9 \pm 1,7$	1,5	1,3
2	$90^\circ$ oldinga egilgan holatda tanani 10 marta aylantirish ta'sirida	$15,2 \pm 1,87$	$3,2 \pm 0,07$	$16,5 \pm 1,93$	$4,3 \pm 0,09$	1,3	1,1
3	<b>KF</b>	<b>13,1</b>	<b>4,4</b>	<b>13,3</b>	<b>4,6</b>	<b>1,2</b>	<b>0,2</b>

**Izoh:** O'MY – o'quv-mashg'ulot yili; KAO'S – ko'rsatkichlarning absolyut o'sish sur'ati; KF – ko'rsatkichlar farqi.

Misol uchun, tinch holatda zarbalar hajmi  $28,3 \pm 3,04$  martani tashkil etgan bo'lsa, ularning aniqligi  $7,6 \pm 1,2$  martaga teng bo'lgan. Asosiysi va afsuslanarli joyi shundaki, tinch holatda qayd etilgan zarbalar hajmi ( $28,3 \pm 3,04$  marta)  $90^\circ$  oldinga egilib, tanani 10 marta aylantirish ta'sirida deyarli 2 barobarga kamaygan

( $15,2 \pm 1,87$  marta), zarbalar aniqligi esa muvofiq ravishda  $7,6 \pm 1,2$  martadan  $3,2 \pm 0,07$  martagacha kamayib ketgan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi 7-8 yoshli bolalarda tinch holatda va 90° oldinga egilgan holatda tanani 10 marta aylantirish ta’sirida 30 s. ichida ijro etilgan zarbalar hajmi (soni) va aniqligini o‘quv-mashg‘ulot yili davomida o‘zgarishi dinamikasi**

**Izoh:** - zs – zarbalar soni (hajmi);  
 - za – zarbalar aniqligi (soni);  
 A – O‘MY boshida; B – O‘MY yakunida.

Ushbu ko‘rsatkichlarning bir o‘quv-mashg‘ulot yili yakuniga kelib o‘sish sur‘ati 1,2-1,5 martadan ortmagan. Bunday holatning yuzaga kelganligi nafaqat mazkur yosh tennischilar mashg‘ulotlarida zarbalar aniqligi vestibulokinetik mashqlar ta’sirida shakllantirilmasligidan darak beradi, balki ularda jismoniy va funksional tayyorgarlikni jadal rivojlantiruvchi maxsus mashqlar ham qo‘llanmasligini isbotlaydi.

Dissertatsiyaning **“7-8 yoshli stol tennischilarda zarbalar aniqligini an’anaviy va eksperimental mashqlar yordamida shakllantirish samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida 7-8 yoshli stol tennischilardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida o‘tkazilgan 10 oylik pedagogik tajriba natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan bu borada o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, tajribani o‘tkazish davrida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanishni davom ettirgan NGda tajribadan avval qayd etilgan tennis stoli aylanasi bo‘ylab 2 marta chap yonlama, 2 marta o‘ng yonlama yugurish tezligi (alohida va integral ko‘rinishda), joydan turli tomonlar bo‘ylab hatlab sakrash uzunligi, “Archasimon” yugurish – 54 m tezligi tajriba yakuniga kelib absolyut jihatdan ham, nisbiy jihatdan ham jadal sur‘atlar bilan o‘smaganligi aniqlandi (5-jadvalga qarang).

Lekin tajriba davomida tavsiya etilgan eksperimental mashqlarni muntazam bajarib borgan TGda esa deyarli barcha ko'rsatkichlar jadal sayqallashib borgani kuzatildi.

### 5-jadval


#### Stol tennisi bilan shug'ullanuvchi 7-8 yoshli tennischilarining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini pedagogik tajriba davomida o'sish sur'ati (n=48)

T/r	Testlar	Guruh	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		AO'	NO'	t	P
			X	$\sigma$	X	$\sigma$				
1	Tennis stoli atrofida yugurish (soniya) 2 marta o'ng yonlama	NG	16,57	2,42	15,17	2,19	1,4	8,45	2,10	<0,05
		TG	16,87	4,38	12,14	3,06	4,73	28,04	4,34	<0,001
2	2 marta chap yonlama	NG	14,43	1,68	13,63	1,54	0,8	5,54	1,72	>0,05
		TG	14,77	2,65	12,33	2,17	2,44	16,52	3,49	<0,01
3	4 marta yugurish tezligi (soniya)	NG	31,00	3,78	28,80	3,59	2,20	7,10	2,07	<0,05
		TG	31,64	6,93	24,47	5,18	7,17	22,66	4,06	<0,001
4	Joydan turli tomonlar bo'ylab hatlash (sm): oldinga	NG	105,37	4,42	107,51	4,16	2,14	2,03	1,73	>0,05
		TG	106,31	6,37	112,84	6,54	6,53	6,14	3,50	<0,01
5	O'ng diogonal bo'ylab	NG	105,83	4,11	107,81	3,91	1,98	1,87	1,71	>0,05
		TG	104,38	6,67	112,88	6,67	8,5	8,14	4,41	<0,001
6	Chap diogonal bo'ylab	NG	103,63	3,73	105,42	3,46	1,79	1,73	1,72	>0,05
		TG	101,86	6,67	108,57	6,72	6,71	6,59	3,47	<0,01
7	O'ng yon tomonga	NG	103,84	3,83	105,67	3,51	1,83	1,76	1,73	>0,05
		TG	101,71	5,47	107,94	5,11	6,23	6,13	4,08	<0,001
8	Chap yon tomonga	NG	97,84	3,52	99,73	3,93	1,89	1,93	1,75	>0,05
		TG	96,22	6,41	102,86	6,34	6,64	6,90	3,61	<0,001
9	"Archasimon" yugurish (soniya)	NG	24,27	2,59	23,02	2,43	1,25	5,15	1,72	>0,05
		TG	24,85	3,97	20,31	3,09	4,54	18,27	4,42	<0,001

Masalan, tennis stoli atrofida yugurish tezligi  $31,64 \pm 6,93$  soniyadan  $24,47 \pm 5,18$  soniya gacha o'sgan ( $P < 0,001$ ) yoki uning 10 oylik absolyut o'sish farqi 7,17 soniya bilan qayd etilgan, nisbiy o'sish sur'ati esa 22,66% ni tashkil etgan (NGda bu ko'rsatkichlar 2,20 soniya va 7,10% ga teng bo'lgan). Joydan oldinga, o'ng va chap diagonal bo'ylab, o'ng va chap yon tomonlarga hatlab sakrash oraliqlari (uzunligi), shu jumladan "Archasimon" shaklda mokisimon yugurish – 54 m tezligi ham TGda jadal sur'atlar bilan o'sganligi ma'lum bo'ldi (2-rasmga qarang).

O'rganilgan harakat sifatlarining vegetativ komponentlari ham TGda tajriba yakuniga kelib progressiv tomonga o'zgargani kuzatildi. Jumladan, YuQCh TGda

tajribadan avval  $79,2 \pm 5,32$  zarba/daq bilan qayd etilgan, tajriba yakuniga kelib bu ko'rsatkich  $73,3 \pm 4,62$  zarba/daq gacha kamaygan ( $P < 0,001$ ) yoki bunday reaksiya ma'lum darajada yurakni tejamli ishlash rejimiga moslashganidan darak beradi.




**2-rasm. 7-8 yoshli stol tennischilaridan iborat nazorat va tajriba guruhlarida tennis stoli bo'ylab 2-2-4 marta yugurish tezligining absolyut va nisbiy o'sish ko'rsatkichlarini ifodalovchi diagrammalar**

**Izoh:** 1 – tennis stoli aylanasi bo'ylab 2 marta o'ng yonlama yugurish;  
 2 – tennis stoli aylanasi bo'ylab 2 marta chap yonlama yugurish;  
 3 – tennis stoli bo'ylab 4 marta to'xtovsiz yugurish; a – NG; b – TG.

